

Alisher Xudoynazarovich Shadiyev,
Buxoro davlat universiteti mustaqil
izlanuvchisi, Osiyo xalqaro universiteti
o'qituvchisi

MINTAQANI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH ZAMONAVIY YONDASHUVLARINING ILMIY-NAZARIY TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy ilmiy yondashuvlarga muvofiq muayyan yaxlit hududni rivojlantirish jarayonining eng muhim xususiyatlari: ko'p qirralilik, nomutanosiblik, nomuvofiqlik, davriylik va bosqichma-bosqichlik yondashuvlarini boyitgan holda uning xususiyatlari tarkibi takomillashtirilgan. Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalasiga zamonaviy ilmiy yondashuvlarga doir tahlillar amalga oshirilgan hamda nazariy jihatlarining o'ziga xosliklari qiyoslanib, muallifning tadqiqot doirasidagi ilmiy yo'nalishlari aniqlashtirilgan. Shu asosda tadqiqotning dastlabki bosqichi doirasida amaliy taklif hamda tavsiyalarni ishlab chiqish tayanch nuqtalari belgilab olinib, tadqiqot maqsadlariga erishishning tayanch bazasi yaratilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, bozor iqtisodiyoti, moliyaviy siyosat, fiskal siyosat, subsidiyalar, soliqlarning differensiallashtirilgan stavkalari, innovatsion rivojlanish, inson kapitali nazariyasi, institutsional rivojlanish.

Аннотация

В данной статье в соответствии с современными научными подходами усовершенствован состав характеристик процесса развития определенной целостной территории, обогащая такие важнейшие особенности как: многогранность, непропорциональность, несоответствие, цикличность и поэтапность. Проведен анализ современных научных подходов к вопросу социально-экономического развития региона, сопоставлены особенности теоретических аспектов, и определены научные направления автора в рамках исследования. На этой основе определены опорные точки для разработки практических предложений и рекомендаций в рамках начального этапа исследования, создана базовая основа для достижения целей исследования.

Ключевые слова: социально-экономическое развитие, рыночная экономика, финансовая политика, фискальная политика, субсидии, дифференцированные ставки налогов, инновационное развитие, теория человеческого капитала, институциональное развитие.

Abstract

This article improves the composition of characteristics of the development process of a specific integrated territory in accordance with modern scientific approaches, enriching such essential features as: multifaceted nature, disproportionality, inconsistency, cyclicity and phased implementation. An analysis of modern scientific approaches to the issue of socio-economic development of the region has been carried out, the peculiarities of theoretical aspects have been compared, and the author's scientific directions within the framework of the research have been determined. On this basis, reference points for developing practical proposals and recommendations within the initial stage of research have been established, creating a fundamental basis for achieving the research objectives.

Keywords: socio-economic development, market economy, financial policy, fiscal policy, subsidies, differentiated tax rates, innovative development, human capital theory, institutional development.

Kirish

XX asrning o'rtalaridan e'tiboran ilmiy hamjamiyatda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini baholashga taalluqli yondashuvlar shakllana boshladi. Jumladan, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini baholashga qaratilgan eng keng qamrovli yondashuvlardan biri Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1970-yilda ishlab chiqilgan. Mazkur yondashuvda bir nechta ko'rsatkichlar majmuasi mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiritilgan: bir kunda kishi boshiga muvofiq keladigan hayvon oqsillari iste'moli, har ming aholi soniga to'g'ri keladigan gazetalar soni, qishloq xo'jaligida ishchi kuchi ulushidagi voyaga yetgan erkaklar soni va boshqa shunga o'xshash bir qator boshqa omillar.

1990-yillarda esa hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonini uchta asosiy ko'rsatkichlar guruhi orqali baholaydigan yondashuv shakllandi:

Birinci guruh – hududdagi yashash uchun munosib shart-sharoitlar va qulaylik darajasini baholovchi ko'rsatkichlar.

Ikkinchi guruh – fuqarolarning shaxsiy erkinligi va siyosiy huquqlari, siyosiy erkinlik, iqtisodiy mobillik imkoniyatlarini baholovchi ko'rsatkichlar.

Uchinchi guruh – fuqarolarning jamiyatdagi shaxsiy taraqqiyoti, ijtimoiy ehtiyojlarga muvofiqlik, sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini baholovchi ko'rsatkichlar [18].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

M.Litwiński fikricha: “Rivojlanish tushunchasi ta'rifining o'zgarishlarga uchrab kelayotganligiga sabab bo'lgan ijtimoiy-madaniy kontekstning xususiyatlarini ko'rsatib o'tish muhim ahamiyatga ega sanalib, bu zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilayotgan rivojlanish jarayoni ta'riflarini to'g'ri va chuqur anglash imkonini beradi” [9].

Ekologik va iqtisodiy rivojlanishning muqobil nazariyalarini tadqiq etar ekan E.Y.Dotsenko, N.P.Ezdina, A.Sh.Khasanova, va M.I.Khasanovlar [3] ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda atrof-muhit omilining o'rnini muqobil iqtisodiy maktablar va yo'nalishlar g'oyalarini inobatga olgan holda belgilaydilar va inson hayotining asosi bo'lgan atrof-muhitni saqlab qolish muammolari tahliliga keng urg'u berishadi.

S.Bekmurodova fikricha “Mintaqa mas'uliyatining kuchayishi davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini markazlashtirmaslik natijasi bo'lib, uning moliyaviy-iqtisodiy imkoniyatlaridan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan mintaq subyektlarining o'zaro hamkorligini boshqarish metodologiyasini ishlab chiqish hozirgi kunda obyektiv zarurat hisoblanib, bozor munosabatlarining shakllanishi hududlarni rivojlantirishda ijtimoiy-iqtisodiy nosimmetriklikning kuchayishiga va mintaqaviy moliya siyosatini muvozanatli olib borish zaruriyatiga olib keldi” [13].

D.Sh.Yavmutov hududiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishi sifatida mintaqaviy ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqishga bag'ishlangan tadqiqotlari natijasida: “mintaqaning ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlanishi – mintaqada ekologik va iqtisodiy tizimlarning hamda ularning o'zaro bog'liq jarayonlarining hududiy barqaror rivojlantirish maqsadida samarali tashkil etilishi sanaladi” [2] ta'rifni ishlab chiqqan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotchi zamonaviy ilmiy yondashuvlarga muvofiq muayyan yaxlit hududni rivojlantirish jarayonining eng muhim xususiyatlari: ko'p qirralilik, nomutanosiblik, nomuvofiqlik, davriylik va bosqichma-bosqichlik yondashuvlarini boyitgan holda uning xususiyatlari tarkibini takomillashtirgan.

Nazariy-qiyosiy tahlillar natijasida mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha 10 xil zamonaviy yondashuvlar 1)inklyuziv rivojlanish; 2)raqamli transformatsiya; 3)hududiy klasterlash; 4)agrologistika va qishloq hududlari rivojlanishi; 5)markaz-periferiya nazariyasi; 6)endogen rivojlanish; 7)innovatsion rivojlanish; 8)inson kapitali nazariyasi; 9)barqaror rivojlanish 10)institutsional rivojlanish mavjudligi aniqlangan.

Shuningdek, mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha zamonaviy yondashuvlarning ustunliklari va kamchiliklari solishtirma tahlili amalga oshirilib muallif yondashuvlari ilgari surilgan.

Tahlil va natijalar

Iqtisodiyot rivojlanishidagi transformatsion jarayonlar deyarli uzluksizlik kasb etgan bo'lib, bu holat insonlarning ishlab chiqarish tizimidagi ishtirokchi va asosiy muvofiqlashtiruvchi sifatidagi vazifasini tubdan o'zgartiradi. Bunday sharoitdagi transformatsiya jarayonlarida insonlarning deyarli to'xtovsiz davom etayotgan muhitda tezkor va oqilona qarorlar qabul qilish qobiliyati asosiy o'ringa chiqadi. Zamonaviy shart-sharoitlarda iqtisodiy tizim tashqi ta'sir omillariga turli davrlarda turlicha reaksiya berishi aniq ko'zga tashlanadi. Bunda insonning iqtisodiy tizim rivojlanishidagi roli kamaytirilishi natijasida paydo bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar ham o'z navbatida dinamik muvozanat holatida mavjudlik kasb etmoqda. Ushbu tizimlar o'zgaruvchan tashqi va ichki sharoitlarga moslashgan bo'lib, ularning barqarorligi inson omilining faol ishtirokidan ko'ra tizimli muvofiqlik va o'z-o'zini boshqarish xususiyatlari bilan birgalikda belgilanmoqda [5].


Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida iqtisodiy faoliyatning asosiy drayverlari bo'lib hisoblangan xususiy mulk, erkin raqobat va bozorda narxlarning belgilanishi hududlararo iqtisodiy rivojlanish darajasida jiddiy tafovutlarni yuzaga keltirib, bu ijtimoiy-iqtisodiy nosimmetriklik deb ataladi. Ya'ni, iqtisodiy resurslar, investitsiyalar, ishlab chiqarish quvvatlari va ijtimoiy infratuzilmaning notekis taqsimlanishi natijasida ayrim hududlar, ayniqsa, yirik sanoat markazlari va iqtisodiy faol zonalar juda tez sur'atda rivojlanayotgan bo'lsada, nisbatan chekka hududda joylashgan yoki resurslari cheklangan mintaqalar sezilarli darajada ortda qolmoqda.

Iqtisodiy mintaqaning shakllanishi uchun bir qator shartlar mavjud bo'lib, ularga tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy sharoitlar kiradi [15]. Tarixiy sharoitlar iqtisodiy mintaqalarning shakllanishida asosiy omillardan biri bo'lib, aholining qadimiy joylashuvi, savdo yo'llari, madaniy aloqalar va tarixiy davlat chegaralari hududlararo iqtisodiy aloqalarni shakllantiradi. Ijtimoiy-iqtisodiy shartlar aholining zichligi, mehnat resurslari, infratuzilma darajasi, ishlab chiqarish kuchlari, bozorlar mavjudligi kiradi. Ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan o'zaro bog'liq hududlar yagona iqtisodiy mintaqaga birlashadi. Tabiiy sharoitlar (foydali qazilmalar, suv, yer), iqlim, geografik joylashuv mintaqalarning iqtisodiy faoliyatini aniqlaydi. Masalan, tog'li hududlarda kon sanoati rivojlanishi, daryo bo'yidagi hududlarda sug'orma dehqonchilik yoki gidroenergetika salohiyatining mavjudligi mintaqaviy ixtisoslashuvni shakllantiradi.

Hududning barqaror rivojini ta'minlash, shuningdek, aholi hayot darajasining normal rivojlanishi uchun qulay infratuzilma zarur bo'lib, u turli xildagi inshootlar, tizimlar va xizmatlar majmuasi sifatida qaraladi. Bilamizki, aynan mazkur infratuzilma asosida moddiy ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlari rivojlanadi va fuqarolarning ehtiyojlari qondiriladi. Infratuzilma ikki turga bo'linadi: 1) iqtisodiy infratuzilma; 2) ijtimoiy infratuzilma. Infratuzilmaning asosiy maqsadi hududning barqaror o'sishi va rivojlanishini ta'minlashdan iboratdir [17].

Shunday qilib, mintaqa rivojlanishi uning tuzilmasidagi iqtisodiyot, aholi, hudud, moddiy va axborot aloqalari, makondagi progressiv o'zgarishlar sifatida ko'rib chiqilishi lozim. Jamiyat ongida, dunyo qarashlarida, an'analarda va insonlarning shakllangan odatlarida ham ijobiy o'zgarishlar kuzatiladi. Hududning iqtisodiy salohiyati esa fuqarolarning turmush darajasi, mehnat, yashash va hordiq chiqarish shart-sharoitlarini yaxshilashning asosini tashkil etadi [17].

Ayrim olimlar fikricha, zamonaviy ilmiy yondashuvlarga muvofiq muayyan yaxlit hududni rivojlantirish jarayonining eng muhim xususiyatlari quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak: ko'p qirralilik, nomutanosiblik, nomuvofiqlik, davriylik va bosqichma-bosqichlik. Biz ushbu yondashuvlarni boyitgan holda uning xususiyatlari tarkibini takomillashtirdik. Natijalar 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Yaxlit hududni rivojlantirish jarayonining eng muhim xususiyatlari¹

Ko'p qirrali rivojlanish – hududiy rivojlanish iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, madaniy va institutsional sohalarida bir vaqtning o'zida amalga oshadi. Ko'p qirrali yondashuv hududning barqarorligini ta'minlashda har bir sektor o'rtasidagi o'zaro aloqalarni muvofiqlashtirish zaruriyatini namoyon etadi.

Nomutanosiblik (disproporsionallik) – rivojlanish jarayonida resurslar, infratuzilma, mehnat bozori yoki investitsiyalarning notekis taqsimlanishi kuzatiladi va bu holat mintaqalararo farqni kuchaytirib, strategik muvozanatlashtirishni talab etadi.

Nomuvofiqlik – hududlar yoki alohida sohalar rivojlanishining bir vaqtning o'zida sodir bo'lmashligi, ya'ni tarmoqlar yoki mintaqalar orasida rivojlanish nuqtai nazaridan vaqt jihatdan farqlar mavjudligi. Masalan, iqtisodiy o'sish tez yuz berishi mumkin, lekin ijtimoiy xizmatlar yoki ekologik muvozanat ayni darajada tez rivojlanmasligi mumkin.

Davriylik – rivojlanish jarayoni iqtisodiy sikllar — o'sish, tanazzul, tiklanish va barqarorlashuv bosqichlarini o'z ichiga olib, ushbu bosqichlar hududiy siyosatni moslashtirish va rejalashtirishda muhim ahamiyatga ega etadi.

Bosqichma-bosqichlik – hududiy rivojlanish doimo izchil bosqichlarda amalga oshadi, xususan, tayanch infratuzilmani shakllantirish, iqtisodiy faollikni oshirish, innovatsion salohiyatni rivojlantirish va nihoyat ijtimoiy farovonlikni ta'minlash. Aytib o'tish lozimki har bir bosqich o'ziga xos resurs va mexanizmlarni talab etadi [10].

Hududiy differensiallashuv – har bir hudud o'zining tabiiy resurslari, demografik holati, tarixiy taraqqiyot darajasi bilan farq qiladi. Bu esa yondashuvlarni moslashtirishni va differensial rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishni talab qiladi.

Innovatsion faollik darajasi – rivojlanish samaradorligi bevosita hududda ilm-fan, texnologiyalar va raqamli infratuzilmalarni joriy etish darajasiga bog'liq sanalib, innovatsion salohiyati past bo'lgan hududlarda rivojlanish nchagina sekin kechadi.

Resurslardan samarali foydalanish – hududiy rivojlanish darajasi mavjud tabiiy, insoniy va moliyaviy resurslardan oqilona, barqaror hamda samarali foydalanishga bog'liq. Bu orqali ekologik cheklavlarni ham hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Ijtimoiy inklyuzivlik – rivojlanish barcha ijtimoiy guruhlar, jumladan zaif qatlamlar manfaatlarini inobatga olgan holda amalga oshirilishi zarur bo'lib, aholining faol ishtiroki va teng imkoniyatlar mavjudligi barqaror rivojlanish asosidir.

¹ Muallif ishlanmasi

Institutsional barqarorlik va boshqaruv sifati – mahalliy hokimiyat organlari va davlat tuzilmalarining samarali faoliyati, qaror qabul qilishdagi shaffoflik va strategik rejalashtirish sifati yuqoriligi rivojlanish uchun muhim omillardir.

Tadqiqotlar natijasida mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha 10 xil zamonaviy yondashuvlar mavjudligini aniqladik: 1)inklyuziv rivojlanish; 2)raqamli transformatsiya; 3)hududiy klasterlash; 4)agrologistika va qishloq hududlari rivojlanishi; 5)markaz-periferiya nazariyasi; 6)endogen rivojlanish; 7)innovatsion rivojlanish; 8)inson kapitali nazariyasi; 9)barqaror rivojlanish 10)institutsional rivojlanish(1-jadvalga qarang).

1-jadval

Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha zamonaviy yondashuvlar¹

№	Yondashuv nomi	Mohiyati	Mualliflar	Yili
1	Barqaror rivojlanish	Ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik uyg'unlik	Gro Harlem Brundtland	Our Common Future (1987)
2	Inklyuziv rivojlanish	Iqtisodiy o'sishdan hamma manfaatdor bo'lishi	Amartya Sen, UNDP	Development as Freedom (1999), UNDP HDR (2010)
3	Raqamli transformatsiya	Raqamli texnologiyalar orqali samaradorlik	Klaus Schwab, Brynjolfsson McAfee	The Fourth Industrial Revolution (2016); The Second Machine Age (2014)
4	Hududiy klasterlash	Klasterlar orqali raqobatbardoshlik	Michael Porter	The Competitive Advantage of Nations (1990)
5	Agrologistika va qishloq rivojlanishi	Qishloq infratuzilmasi va oziq-ovqat xavfsizligi	Robert Chambers, FAO, IFAD	Rural Development: Putting the Last First (1983)
6	Markaz-periferiya nazariyasi	Rivojlanish markazlardan periferiyaga tarqaladi	François Perroux, Gunnar Myrdal	L'économie du XXe siècle (1961); Economic Theory and Underdeveloped Regions (1957)
7	Endogen rivojlanish	Ichki resurslar va bilimga asoslangan rivojlanish	Paul Romer, Masahiko Aoki	Romer – Endogenous Technological Change (1990)
8	Innovatsion rivojlanish	Innovatsiyalar asosiy drayver sifatida	Joseph Schumpeter, Freeman, Perez	Schumpeter – Capitalism, Socialism and Democracy (1942); Freeman & Perez (1988)
9	Inson kapitali nazariyasi	Ta'lim va sog'liqni saqlash – asosiy investitsiya	Theodore Schultz, Gary Becker	Schultz – Nobel Lecture (1979); Becker – Human Capital (1964)
10	Institutsional rivojlanish	Muassasalar va boshqaruv hal qiluvchi ahamiyatga ega	Douglass North, Dani Rodrik	North – Institutions, Institutional Change and Economic Performance (1990); Rodrik (2000)

Iqtisodiy o'sish, ya'ni ishlab chiqarishning ko'payishi, asosiy ustuvor vazifa sifatida belgilanligi sababli iqtisodiy masalalar insonlar o'rtasidagi munosabatlarning bosh mavzusiga aylandi [4]. Ma'lumki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ekologik barqarorlikni ta'minlanmasdan erishilishi imkonsiz bo'lgan jarayondir. Brundtland hisobotida ekologik barqarorlik uchun minimal talablarni

¹ Mullif ishlanmasi

belgilashning ikki sababi keltirilgan bo'lib, birinchidan, agar insonning asosiy ehtiyojlari barqaror tarzda qondirilishi kerak bo'lsa, yerning tabiiy asoslari saqlab qolinishi lozim. Inson taraqqiyoti, odatda, ekotizimlarga zarar yetkazadi, bu esa turlar sonining kamayishiga olib kelib, natijada o'simlik va hayvonot turlarining yo'qolishi kelajak avlodlar tanlov imkoniyatlarini jiddiy cheklab qo'yishi mumkin. Shu sababli, Brundtland hisobotida "barqaror rivojlanish o'simlik va hayvonot turlarini saqlab qolishni talab etadi" degan xulosa ilgari surilgan [7].

Mintaqaviy o'sish va rivojlanish nazariyalari iqtisodiy maktablarga, mamlakat ta'sir doiralarga yoki boshqa xususiyatlar asosida guruhlanishi mumkin. Modellar va strategiyalarni tasniflashning eng keng tarqalgan yondashuvlaridan biri iqtisodiy o'sishni shakllantiradigan omillarga qarab asosiy nazariyalarni ko'rib chiqish hisoblanadi.

MDH davlatlari olimlari A.Yu.Makarova, A.N.Ershov, N.S.Kibitkina, I.M.Timoshenko, P.V.Shinkorenko yuqoridagi fikrlarga asoslar ekan, mintaqaviy o'sish va rivojlanish nazariyalarini to'rt guruhga ajratish mumkinligini ta'kidlashgan:

Birinci guruh nazariyalari – an'anaviy ekzogen neoklassik modellar. Ular inson mehnati va kapital oqimlarini ko'rib chiqadi. Ushbu guruhdagi nazariyalar doirasida mehnat va kapital miqdori iqtisodiy o'sishning asosiy omillari hisoblanadi. Fikrimizcha, ushbu nazariyalarda tashqi omillar ta'siri katta deb hisoblanadi va ichki tizimdagi o'zgarishlar e'tiborsiz qoldiriladi.

Ikkinchi guruh nazariyalariga aglomeratsiya modellarini kiritish mumkin. Ushbu guruhdagi nazariyalarda iqtisodiy o'sishning asosiy omili aglomeratsiya ta'siri va miqyosi effektidir. Ushbu modelda ko'pincha hududlar o'rtasidagi tengsizliklar inkor etiladi va kichikroq hududlar yoki rivojlanmagan mintaqalar e'tiborsiz qoldirilishi mumkin.

Uchinchi guruh nazariyalari – mintaqaviy endogen o'sish va rivojlanish modellari bo'lib, ular doirasida rivojlanishning asosiy omillari sifatida inson kapitali, tarmoq ta'siri va klasterlar ko'rib chiqiladi. 1980-yillardan boshlab endogen o'sish nazariyasi tarafdorlari P.M.Romer, R.E.Lucas, G.Grossman hamda E.Helpman texnologik o'zgarishlar iqtisodiy o'sish jarayonlarining asosini tashkil qilishini ta'kidlab, inson kapitaliga ko'proq sarmoya kiritish muhimligi g'oyalarini ilgari surishgan [6; 10; 12]. Biroq, bu nazariyalarda texnologik o'zgarishlar ham chiziqli jarayon sifatida tasvirlangan bo'lib, ular iqtisodiy samaradorlikka ta'sir qiluvchi bozordan tashqari jarayonlar va ijtimoiy-institutsional xususiyatlarning ahamiyatini e'tibordan chetda qoldiradi, vaholanki ushbu xususiyatlar inson farovonligi uchun nihoyatda muhimdir [14].

Mazkur guruh nazariyalarida ba'zida tizim ichidagi ijtimoiy va siyosiy omillarni hisobga olish unutiladi, bu esa ayrim hollarda notenglikning kuchayishiga olib kelishi mumkin deb hisoblaymiz.

To'rtinchi guruh nazariyalari – mintaqaviy innovatsion modellardir. Innovatsiyalar, innovatsion jarayon, o'qitishning yangicha yondashuvlari – bu kompaniyalar, mintaqalar, shuningdek, davlatlar va global ittifoqlarning uzoq muddatli o'sishini ta'minlashning asosiy manbalaridir. Fikrimizcha, innovatsiyalarni joriy etish ko'plab resurslarni talab qilishi ehtimoli yuqori, shu sababli rivojlanayotgan mintaqalar va kambag'al davlatlar uchun mazkur amaliyot sezilarli darajada cheklangan bo'lishi mumkin.

Mintaqaviy o'sish va rivojlanish nazariyalarini qo'shimcha guruhlar bilan to'ldirish mumkin deb hisoblaymiz va mazkur guruhlar ilmiy asoslar va iqtisodiy o'sishning turli omillarini hisobga olib yanada aniqroq yondashuvlar taqdim eta oladi. Quyida inobatga olinishi lozim guruhlarini ko'rib chiqamiz:

Institutsional nazariyalar – iqtisodiy o'sish va rivojlanishni tashkil etuvchi asosiy omil sifatida institutsional muhitni ko'rib chiqadi. Nazariyalar, iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda muassasa va normativ tizimlarning ahamiyatini inobatga olib, siyosiy barqarorlik, huquqiy tizimlar, davlat siyosati va boshqaruv tuzilmalarini qamraydi.

Mazkur yondashuvning ilmiy asosi sifatida D.Acemoglu va A. Robinson [1] o'z tadqiqot ishlarida institutsional tizimlarning mamlakatlar iqtisodiy muvaffaqiyatiga qanday ta'sir qilishini ko'rsatib berishganligini qayd etishimiz mumkin. Biroq, mazkur yondashuvlarda ham kamchiliklar mavjud bo'lib, fikrimizcha, ko'plab mamlakatlar uchun institutsional o'zgarishlarni joriy etish

anchagina murakkab bo'lishi mumkin, ayniqsa ularning tarixiy va madaniy xususiyatlari ko'p hollarda bu boradagi eng katta to'siq bo'ladi.

Mintaqaviy integratsiya va globalizatsiya nazariyalari – iqtisodiy o'sish va rivojlanishning asosiy omili sifatida mintaqaviy integratsiya va global tarmoq ta'siri ko'rib chiqiladi. Ushbu nazariyalarda mintaqaviy integratsiya jarayonlari, savdo bloklari va xalqaro munosabatlar iqtisodiy o'sishga qay tarzda ta'sir qilish tushuntiriladi. Xususan, globalizatsiya va integratsiya borasida E.Joseph [16] o'z izlanishlarida global iqtisodiy integratsiyaning ijobiy va salbiy ta'sirlarini keng miqyosda o'rganib chiqqan. Salbiy tomonlariga to'xtaladigan bo'lsak, globalizatsiya jarayonlari ba'zida ichki notenglikni kuchaytirishi mumkin, chunki ayrim mamlakatlar va mintaqalar global tarmoqlardan foyda olishda yetarli qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Ijtimoiy kapital va tarmoqlar nazariyasi – ijtimoiy kapitalning iqtisodiy o'sishga bo'lgan ta'sirini o'rganadi. Tarmoqlar va ijtimoiy aloqalar, jamiyat ichidagi o'zaro ishonch, hamkorlik iqtisodiy faollikni oshiradi. Mazkur turdagi nazariyalar mintaqalardagi turli jamoalar va ijtimoiy guruhlarining o'zaro aloqalarini rivojlantirish orqali o'sishni kuchaytirishni maqsad qiladi. Xususan, R. Putnamning [11] ijtimoiy kapital va uning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni haqida chuqur tahlillar amalga oshirilgan. Ijtimoiy kapital o'lehoi va uni amaliy ravishda rivojlantirish ba'zan murakkab kechib, abstrakt tushuncha sifatida qaralishi nazariyaning kamchiliklari sirasiga kiradi deb hisoblaymiz.

Yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish nazariyalari – yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanishning zamonaviy yondashuvlari iqtisodiy o'sishni ekologik barqarorlik bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan. Ekologik xavfsizlik, qayta tiklanadigan energiya manbalari va atrof-muhitni saqlash iqtisodiy rivojlanishning uzluksizligini ta'minlashga yordam berishiga urg'u beriladi.

Tadqiqotchi T.Jackson [8] tadqiqotlarida yashil iqtisodiyot va atrof-muhitni saqlashning iqtisodiy o'sish bilan qanday uyg'unlashishi mumkinligi o'rganilgan. Bizningcha, nazariyaning kamchiligi yashil iqtisodiyotning rivojlanishi ba'zida qimmatbaho texnologiyalarni va investitsiyalarni talab qiladi, bu esa ayrim mamlakatlar va mintaqalarda amalga oshirishda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin bilan xarakterlanadi.

Raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalar nazariyasi – raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va ma'lumotlarni tahlil qilish kabi zamonaviy innovatsiyalar iqtisodiy o'sishning asosiy omillari sifatida ko'riladi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi ishlab chiqarish, savdo, va xizmatlar sohasida samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Nazariyaning salbiy jihati fikrimizcha, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi jarayonida ayrim an'anaviy sanoat turlari va ish o'rinlari uchun xavf tug'ilishi mumkinligi, bu esa iqtisodiy o'zgarishlarga tayyor bo'lmagan mamlakatlar uchun katta muammolar yuzaga kelishida ko'zga tashlanadi.

Tadqiqotlar natijasida mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga oid xalqaro tashkilotlarning zamonaviy yondashuvlari ilmiy-nazariy tahlilini amalga oshirdik. Natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga oid xalqaro tashkilotlarning zamonaviy yondashuvlari ilmiy-nazariy tahlili¹

№	Tashkilot nomi	Asoslanilgan hujjat	Metodologik asos	Yondashuvning mazmuni	Ilmiy xulosa
1	BMT (UN)	Human Development Report	Barqaror rivojlanish indikatorlari, HDI	Inson salohiyati, tenglik, sog'liqni saqlash va ta'limga	Ijtimoiy taraqqiyot iqtisodiy o'sish bilan uyg'un bo'lishi lozim

¹ Muallif ishlanmasi

				asoslangan rivojlanish	
2	Jahon Banki (WB)	Reshaping Economic Geography (2009)	Fazoviy-iqtisodiy tahlil, klaster yondashuvi	Geografik tengsizlik, markazlashuv va infratuzilma orqali rivojlanish	Aglomeratsiya va infratuzilma mintaqaviy o'sishni belgilaydi
3	YUNESKO(UNESCO)	Global Education Monitoring Report	Ta'lim indikatorlari, inkluzivlik ko'rsatkichlari	Ta'lim va innovatsiya ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosi	Innovatsion kapital ta'lim bilan mustahkamlanadi
4	Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OECD)	Regional Outlook Reports	Raqobatbardoshlik indeksi, tizimli monitoring	Hududiy siyosat, innovatsiyalar va samarali boshqaruv	Mahalliy siyosat moslashuvchanligi mintaqani barqaror rivojlantiradi
5	Birlashgan millatlar tashkilotining shaharlar va yashash muhitini rivojlantirish dasturi (UN-Habitat)	Sustainable Urban Development	Urbanizatsiya modeli, transport va yashash muhiti	Barqaror shaharlar va muvozanatli mintaqaviy rivojlanish	Infratuzilma va yashash sifati o'sish omili sanaladi
6	Oziq ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO)	Rural Development Strategy	Qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat xavfsizligi	Qishloq hududlarida iqtisodiy faollikni oshirish	Mintaqaviy tenglik uchun qishloq hududlari rivoji nihoyatda muhimdir
7	Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO)	Decent Work Agenda	Mehnat bozori, bandlik va mehnat sharoitlari	Rivojlanish uchun sifatli ish o'rinlari yaratish	Ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik uchun bandlik strategik omil sanaladi
8	Birlashgan millatlar tashkilotining sanoat rivojlanishi tashkiloti (UNIDO)	Industrial Development Reports	Sanoat indikatorlari, texnologik transfer	Mintaqaviy sanoat rivoji va klasterlar	Sanoatda innovatsion yondashuv raqobatni kuchaytiradi
9	Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF)	Regional Economic Outlook	Makroiqtisodiy tahlil, fiskal siyosat	Mintaqaviy barqarorlik uchun soliq va monetar siyosat	Moliyaviy barqarorlik mintaqaviy o'sishni ta'minlaydi
10	Yevropa Ittifoqi (EU)	Cohesion Policy 2021–2027	Hududiy uyg'unlik modeli	Past darajadagi rivojlangan mintaqalarga	Hududlararo tafovutni kamaytirish integratsiyani kuchaytiradi

				sarmoya yo'naltirish	
--	--	--	--	-------------------------	--

Xulosa va takliflar.

Shunday qilib, BMT yondashuvi ilmiy xulosasiga asosan ijtimoiy taraqqiyot iqtisodiy o'sish bilan uyg'un bo'lishi lozim. Tashkilotning ijtimoiy taraqqiyot bo'yicha qarashlari shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy o'sish o'zi bilan birga ijtimoiy taraqqiyotni olib kelmasa, bu barqaror rivojlanish bo'la olmaydi. BMT konsepsiyasida iqtisodiy o'sish faqatgina yalpi ichki mahsulot hajmining oshishigina emas, balki bu o'sish aholi farovonligi, tenglik va adolat tamoyillarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim.

Ijtimoiy taraqqiyot – ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va inson huquqlari singari yo'nalishlarda barqaror yuksalishni nazarda tutadi. Demak, iqtisodiy va ijtimoiy omillar bir-birini to'ldiradigan, o'zaro uyg'unlashgan tizim sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv "barqaror rivojlanish" (sustainable development)¹ konsepsiyasining asosini tashkil etadi va 2030-yilgacha mo'ljallangan Barqaror Rivojlanish Maqsadlari orqali ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Acemoglu D., Robinson J. A. Why nations fail //New York Review of Books. – 2012. – T. 59. – №. 13. – C. 85-86.
2. D.Sh.Yavmutov. Mintaqaviy ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqish - hududiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishi sifatida. Volume: 52 | 2024 Economy and Innovation ISSN: 2545-0573.
3. Dotsenko E. Y. et al. Evolution of Ideas about the Role of the Environmental Factor in socio-Economic Development //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2021. – T. 247. – C. 01068.
4. Douthwaite R. 1992. The Growth Illusion. Bideford: Green Books
5. Fedulova S., Komirna V. Conceptual approaches to study the innovative development of regional socio-economic systems //Baltic Journal of Economic Studies. – 2017. – T. 3. – №. 5. – C. 412-420.
6. Grossman G. and Helpman E., 1991a. Endogenous innovation in the theory of growth. The Journal of Economic Perspectives 8, 23-44
7. Holden E., Linnerud K., Banister D. Sustainable development: Our common future revisited //Global environmental change. – 2014. – T. 26. – C. 130-139.
8. Jackson T. Prosperity without growth //Globalisation, economic transition and the environment. – Edward Elgar Publishing, 2013. – C. 105-128.
9. Litwiński M. The evolution of idea of socio-economic development //Ekonomia I Prawo. Economics and Law. – 2017. – T. 16. – №. 4. – C. 449-458.
10. Lucas R. E., 1988. On the mechanics of economic development. Journal of Monetary Economics 22, 3-42
11. Putnam R. D. Bowling alone: The collapse and revival of American community. – Simon and schuster, 2000.
12. Romer P. M., 1986. Increasing returns and long-run growth. Journal of Political Economy 94, 1002- 1037
13. S.Bekmurodova. Mintaqaning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy munosabatlarini rivojlantirish. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10053373>
14. Sen A., 1994. Growth economics: what and why? In Pasinetti L. and Solow R. (Eds), Economic growth and the structure of long-term development. IEA Conference held in Varenna, Italy, Vol. 112.

¹ <https://sdgs.un.org/goals>

15. Shiraj, V.I. (2003), *Mirovaja jekonomika I mezhdunarodnye jekonomicheskie otnoshenija* [World economy and international economic relations], Izdatel'skij dom Dashkov i K., Moscow, Russia.
16. Stiglitz J., Pike R. M. *Globalization and its Discontents*. – 2004.
17. Sulimin V., Shvedov V., Lvova M. Modern infrastructure and sustainable socio-economic development of the region //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2021. – T. 296. – C. 03015.
18. Макарова А.Ю., Ершов А.Н., Кибиткина Н.С., Тимошенко И.М., Шинкаренко П.В. *Изучение и адаптация современных подходов к социально-экономическому развитию территорий для стратегического развития регионов Российской Федерации*. Москва 2020.